Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi №PF-4947 sonli Farmoniga ko'ra: "bank tizimini isloh qilishni chuqurlashtirish va barqarorligini ta'minlash, banklarning kapitallashuv darajasi va depozit bazasini oshirish, ularning moliyaviy barqarorligi va ishonchliligini mustahkamlash, istiqbolli investitsiya loyihalari hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini kreditlashni yanada kengaytirish" iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlari sifatida belgilab o'tilgan. Tijorat banklarining rivojlanishida bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasining talablari asosida tijorat banklarining mablag'lari yetarliligi va likvidliligi darajasi ko'rsatkichini qo'llab-quvvatlash va bank risklarini boshqarish tizimi, shu jumladan, ilg'or xorijiy amaliyotlari asosida tijorat banklarida menejmenti samaradorligini yanada oshirish kabi mexamizlardan foydalanish va bu bilan zamonaviy tamoyil va mexanizmlarni joriy qilish mavjud to'siqlarni bartaraf etishga olib kelishi ta'kidlangan.

Tijorat banklari faoliyati auditini olib borishda ularga ta'sir etuvchi risklarni aniqlash, baholash va darajasini pasaytirishga qaratilgan ishlarni doimiy ravishda olib borish lozimligini bildiradi. Yuqorida keltirilgan masalalar yechimini topish auditorlik faoliyatini sifatini yuqori ko'rsatkichlarga olib chiqadi va rivojlanish garovi sifatida xizmat qiladi. Uslubiy jihat sifatida tijorat banklari auditorlik hisobotlari bo'yicha auditorlik riskini aniqlash usullariga, ularni baholash tartiblariga, moliyaviy hisobot auditini o'tkazishda risk darajalarini hisoblash usullarini takomillashtirishga, muammolarni chuqur tadqiq qilishga imkon yaratadi.

Tijorat banklari auditorlik riskini baholash usullarini tubdan tahlil qilish, takomillashtirish bo'yicha taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishning zarurligi mavzuning dolzarbligini belgilaydi. Natijada tijorat banklarining faoliyatida muhimlilik va auditorlik riskini baholash tajribasini amaliyotda qo'llash asosida bank tizimi ichki auditni yanada takomillashtirish imkoniyati vujudga keladi.

## ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida tijorat banklari faoliyatiga real baho berish va omonatchilar, kreditorlar va investorlarning bank faoliyati to'g'risida aniq ma'lumotlarga ega bo'lishlarida auditorlik tekshiruvlari muhim ahamiyatga egadir. Bank faoliyatiga xolisona baho berishda tashqi audit muhim o'rin egallaydi.

Yana bir muhim masala tijorat banklarining ichki auditi tomonidan banklarining faoliyatini tekshirishda auditorlik risklarining vujudga kelishi masalasi ham muhim hisoblanadi.

Auditorlik risklarini aniqlash uchun eng avvalo banklar faoliyatini tashqi audit tekshiruvida nimalarga e'tibor berishini bilish lozim. Umumiy qabul qilingan auditorlik faoliyatining xalqaro standartlariga ko'ra "Tijorat banklarida auditorlik tekshiruvining asosiy funksiyalariga quyidagilar kiradi: tijorat banklarining kapitallashuv darajasi, ustav kapitali va mablag'lari manbalarini to'g'ri shakllantirish, ularni saqlanishi va maqsadli ishlatilishini audit qilish; banklarning kredit resurslaridan to'g'ri va samarali foydalanishni nazorat qilish, kredit portfelini tasniflash va tahlil qilish; ichki bank operatsiyalarini amalga oshirilishini tekshirish va ularning maqsadga muvofiq sarflanishini nazorat qilish; ichki audit xizmatining tashkil etilishiga baho berish; axborotlarga ishlov berishni avtomatlashtirish darajasini nazorat qilish va axborotlarni sir saqlanishini tahlil qilish; boshqa banklardan olingan kredit resurslarini va vaqtinchalik mablag'lardan to'g'ri foydalanishini tekshirish kabilardir"[1].

Tashqi bank auditining asosiy maqsadi tijorat banklari bilan tuzilgan shartnoma asosida moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarini buxgalteriya hisobi ma'lumotlariga mos kelishini auditorlik tekshirishlarini tashkil etish va uni o'tkazishdan iborat. "Tashqi audit jarayonida auditorlik dalillari yig'iladi va bu dalillar asosida auditorlik hisobotini tuzadi, tijorat banklarining moliyaviy hisobotlarining haqqoniyligini auditorlik xulosasi orqali tasdiqlanadi. Shu bilan birga tijorat bankining moliyaviy xo'jalik faoliyatidagi yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf qilish, uni yaxshilash bo'yicha o'z tavsiyalarini rahbariyatga xat shaklida yozma ravishda beradi"[2]. Har qanday moliya institutlari o'z qonuniyatlari va ziddiyatlari ta'sirida, shuningdek, atrof-muhit bilan o'zaro bog'liq holda rivojlanadi. Auditorlar bu jarayonlarni tasvirlashga, turli bank tizimlarining taraqqiyoti natijalariga ilmiy asosda baho berishga uzviy yondoshish zarurligini birinchi bo'lib anglashlari lozim. Tijorat banklari ma'lum davrda mulkdorlar oldida, shuningdek, ba'zan tashqi muhitda turuvchi uchinchi shaxslar oldida hisob berishga majbur hisoblanadi.

Tijorat banklarining ichki audit jarayonida muhim masala auditda axborot riski darajasini kamaytirish uchun ichki audit jarayonida muhimlilik va auditorlik riski masalasi bo'yicha bankning faoliyatiga doir obyektiv axborot bo'lishi muhimdir.

Ma'lumki, ichki audit tekshiruvining asosiy ma'lumotlarni olish bazasi bo'lib tijorat bankining buxgalteriya hisobi ko'rsatkichlari, boshlang'ich hujjatdan boshlab yillik moliyaviy hisobotgacha bo'lgan ma'lumotlar hisoblanadi. Ichki auditorlar tekshirish jarayonida ichki auditning ishchi standartlarida belgilangan maxsus uslublardan

1 Ибрагимов А.К. Аудитнинг халқаро стандартлари асосида тижорат банкларида ички аудитнинг ташкилий асослари. Ўқув қўлланма. –Т.:Молия, 2013. – 384 б. Б.34-35.

2 Ибрагимов А.К., Сугирбаев Б.Б. Бюджет назорати ва аудити. Ўқув қўлланма. – Т.: "infoCOM", 2010.-192 б.

foydalanib, auditorlik dalillarini yig‘adi, moliyaviy hisobotning haqqoniyligi va to‘g‘riligini auditorlik xulosalari bilan tasdiqlaydi va buxgalteriya hisobi ma’lumotlarini tuzatishga doir o‘zlarining takliflarini beradi, qo‘shimcha provodkalar va buxgalteriya hisobidagi yozuvlar bo‘yicha fikr-mulohazalarini beradi.

Tijorat banklarida ichki auditorlik risklarini ko‘rib chiqish uchun, eng avvalo, auditorlik riski tushunchasiga aniqlik kiritish lozim.Chunki banklarning ko‘p jihatlari kabi, kelajakda bizni qanday xavf-xatar kutayotganligini to‘liq ko‘ra bilish yoki risklarni to‘liq bartaraf eta imkoniyati mavjud emas. Ammo, zamonaviy axborot texnologiyalar va olimlarning ushbu masalada olib borayotgan izlanishlari natijasida bu risklarni minimalashtirishga yordam beradi. Shu sababli tijorat banklarida shu o‘rinda “risk” atamasiga ta’rif berish lozim.

Ushbu masalada prof. Smirnova L.R. (2001) “Bank riski ehtimoliy hodisaning qiymat o‘lchovi bo‘lib, u yo‘qotishlarga olib keladi” degan fikrni bildirgan[3]. Bundan tashqari ushbu masala bank faoliyatiga tegishli ilmiy izlanishlarida (Maramigin M.S.,Balin S.Y., 2010) bank riski quyidagicha talqin qilingan , ya’ni, “Kredit tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan, bank operatsiyalarining o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liq yo‘qotish xavfi”[4].

Ammo risk har doim ham yo‘qotishni keltirib chiqarmaydi. Masalan ushbu masalada prof. Gryaznovoy A.G. tomonidan shunday fikr bildirilganligini ko‘rishimiz mumkin: Tijorat tashkiloti kelajakdagi daromadlarini hajmini maksimallashtirish maqsadida biror turdagi riskli faoliyatni amalga oshiradi. Shu bois, bu faoliyat faqat yo‘qotishni keltirib chiqaradi degan fikrga to‘liq qo‘shila olmaymiz[5].

Shunday qilib yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib ularni quyidagicha talqin etishimiz mumkin. Tijorat banklari ichki auditida risklarni baholash masalalarini ikki asosiy qismga bo‘lib ko‘rishimiz lozim. Bir tomonda tijorat banki ichki auditi tizimi bo‘lsa ikkinchi tomonda risklarni boshqarish tizimini atroflicha o‘rganish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bank ichki auditi faoliyati bo‘yicha bir qator olimlarni fikr mulohazalarini tahlil qilganda ichki audit asosan – ichki nazorat tizimining samaradorligiga baho beruvchi faoliyat turi sifatida o‘rganiladi.

Bu borada Podolskiy V.I. Savin A.A., Sotnikova L.V.. (2011) “Ichki audit iqtisodiyot subyektida uning mulk egalari manfaatlarini ko‘zlab tashkil etilgan va uning ichki hujjatlari bilan tartibga solingan buxgalteriya hisobini yuritishning o‘rnatilgan tartibiga amal qilinishini va ichki nazorat tizimi faoliyati ishonchliligini nazorat qilish tizimi hisoblanadi”[6] deb fikr bildirgan.

Bundan tashqari, risklarni boshqarish tizimi va ichki audit tizimining bog‘liqligi yuzasidan bir qator olimlar tomonidan izlanishlar olib borilgan. Bu kabi qarashlar Abdiyeva Sh.N.ning (2015) asarlarida quyidagicha ta’rif berilgan “O‘zbekistonda ichki auditning birinchi shakli rivojlangan bo‘lib, tashkilotda ichki audit xizmatining tashkil qilinishi quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- material hamda mehnat resurslaridan samaraliroq foydalanish;
- moliyaviy hisobot sifatini oshirish yo‘li bilan samarali shartlarda investitsiyalarni jalb etish;
- xarajatlarni qisqartirish;
- korxona tavakkalchiligini pasaytirish”[7].

Auditor nuqtayi nazaridan risklarni boshqarish masalasida ba’zi manbalarda (GAAP.ru, 2009) auditning maqsadi, korxonaning moliyaviy hisobotlariga bo‘lgan ishonchni ifoda etish bo‘lishiga qaramay, xalqaro amaliyot va auditning xalqaro standartlari shuni ko‘rsatadiki, audit qilinadigan tashkilot faoliyatini tekshirmasdan va faoliyat bilan bog‘liq risklarni baholamasdan, moliyaviy hisobotga biror-bir asosli ishonch bildirish mumkin emas, deb fikr bildirilgan.

Fikrimizcha, bu kabi qarashlar audit tizimini nafaqat kuzatuvchi balki risklarni boshqarish tizimining asosiy qismi sifatida qayta ko‘rib chiqish imkonini beradi. Auditning risklarni boshqarish tizimida ishtiroki nafaqat bank rentabelligi, balki uning uzoq vaqt jon saqlashi uchun ham muhimdir.

Odatda tijorat banklari auditning bank operatsiyalari bank siyosati va yo‘riqnomalariga muvofiqligini tekshirishga asoslangan an’anaviy modellaridan foydalanadi. Tijorat bank kengashi yoki aksiyadorlari audit xizmatidan vaqti-vaqti bilan bank uchun muhim bo‘lgan risklarni oldini olish bo‘yicha tizimli ishlarni olib borilishini, audit xizmati tomonidan berilayotgan maslahatlarda ushbu risklarni inobatga olinishini talab qilishlari lozim. Bu tijorat banklari ichki auditi nafaqat ichki nazorat samaradorligi balki risklarni boshqarish tizimining samaradorligini audit qilishi ko‘zda tutilmoqda. Tijorat banki faoliyatini nazorat qilish sohasida risklarni boshqarish tizimini samaradorligini audit qilish o‘z-o‘zidan riskga asoslangan yondashuvni talab qiladi.

Mavjud variantni tanlash yoki yangilarini ishlab chiqish va keyinchalik auditor tomonidan tekshirishlar paytida ma’lum usullarni qo‘llash uning kasbiy mulohazasi va ushbu sohadagi ish tajribasiga asoslanadi. Savol tug‘iladi, auditor test metodikasini aniqlashda qanday omillarni hisobga olishi kerak?

Endilikda, auditning nazariy jihatlariga to‘xtalamiz. Tekshirish usullarini ishlab chiqishda bir qator yondashuvlar mavjud [2]. Quyidagi to‘rt yondashuv qolganlaridan ajralib turadi (1-rasm).

---

3 Смирнова Л.Р. Банковский аудит: Учеб. пособие/Под ред. проф. М.И. Баканова. –М.: “Финансы и статистика,” 2001. – 448 с.
4 Марамыгин М.С.,Балин С.Е., Риск и его место в банковской деятельности. //Известия УрГЭУ. 2010. 4(30). С.34-36.
5 Финансов-кредитный энциклопедический словарь/под ред.А.Г.Грязновой. –М.:Финансы и статистика, 2002.С.49-51.
6 Подольский В.И.,Савин А.А., Сотникова Л., Основы аудита. –М.:Финансы и статистика, 2011. –456 с.
7 Абдиева Н.Ш.Корхоналарда ички аудитни ташкил ыилишнинг хусусиятлари. //“Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. –№ 4, июл-август, 2015. 1-10-бетлар.




1-rasm: Auditorlik tekshiruvi usullarini rivojlantirish yondashuvlari

Yondashuvlarning har birining mohiyati nimada? Metodologiyani yaratishda buxgalteriya yondashuvi moliyaviy hisobotlarni aniq bo'limlarini tekshirishga asoslangan. Masalan, asosiy vositalarni tekshirish usuli, moliyaviy natijani shakllantirishning tekshirish usuli va boshqalar.Ushbu yondashuv bilan ular bo'yicha hisob-kitoblar, oborotlar va qoldiqlar batafsil o'rganilib tekshiriladi.

Sanoat yondashuvi iqtisodiyotning aniq bir sohasiga tegishli bo'lgan korxonaning xususiyatlarini hisobga olgan holda audit metodologiyasini shakllantirishga imkon beradi. Masalan, telekommunikatsiya kompaniyalarini tekshirish metodologiyasi.

Tekshirish metodologiyasini ishlab chiqishda huquqiy yondashuv bilan auditor tekshirilayotgan tashkilotning iqtisodiy faoliyatining huquqiy tomonini hisobga oladi. Masalan, ustav kapitalining shakllanishini tekshirish metodologiyasi. Muayyan yondashuvdan foydalangan holda auditor bir xil, o'ziga xos xususiyatlari va xususiyatlariga ega bo'lgan kompaniyalar uchun tekshirish metodologiyasini ishlab chiqishi mumkin.

Bunday parametrlar sifatida maxsus soliq rejimi, tashkiliy-huquqiy shakli va tashkiliy tuzilishi va boshqalarni ko'rib chiqish mumkin. Metodikani ishlab chiqishda auditor bir vaqtning o'zida bir nechta yondashuvlarni hisobga olishi kerak, bu esa, o'z navbatida, tekshirilayotgan subyektning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish va auditni yanada samarali o'tkazish imkonini beradi.

Muhimlik va auditorlik riski o'rtasida teskari bog'liqlik mavjud: ahamiyatlilik darajasi qanchalik baland bo'lsa, auditorlik tavakkal darajasi past bo'ladi va aksincha.

Auditorlik riskini aniqlash masalasini ko'rib chiqishda auditorlik riski va ma'lumot hajmi o'rtasidagi bog'liqlik tasdiqlanadi.

Umum qabul qilingan auditorlik riski DAR-Desired audit risk (auditorlik riskining maqbul to'plami) quyidagilardan iborat bo'ladi:

**DAR=IR*CR*DR**

DAR-Desired audit risk (auditorlik riskining maqbul to'plami);

- IR-Internal risk(ichki xo'jalik riski);
- CR-Control risk(nazorat riski) ;
- DR-Detection risk(xatolikni topa olmaslik riski).

Xatolikni topa olmaslik riski bu, asosan, auditor faoliyati bilan bog'liq bo'lgan riskdir, xo'jalik ichidagi va ichki nazorat risklari tekshirilayotgan shaxsning o'ziga bog'liqdir. Risklarni tavsiflash uchun "past", "o'rta", "yuqori" tushunchalar qo'llaniladi.

Binobarin, agar auditor tomonidan ichki xo'jalik riski va ichki nazorat riskini yuqori deb baholansa, unda xatolar tekshirilayotgan tijorat banki faoliyatining natijasi ekanligi aniq va auditor xatolarni aniqlamaganligi uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi. Bunday holda aniqlanmaslik riski past bo'ladi. Auditorlik risklari o'rtasidagi bog'liqlikni quyidagicha tasavvur qilish mumkin (2-rasm).

Xatolikni topa olmaslik riski auditorlik tekshiruvi davomida talab qilinadigan dalillar miqdorini belgilaydi. Agar bu risk past bo'lsa, unda dalillar hajmi va axborot bazasi yanada kengroq talab qilinadi.

| | | **Topa olmaslik riski** | | |
|---|---|---|---|---|
| Ichki xo‘jalik riski | Yuqori | **Past** | **O‘rtachadan past** | **O‘rtacha** |
| | O‘rtacha | **O‘rtachadan past** | **O‘rtacha** | **O‘rtachadan baland** |
| | Past | **O‘rtacha** | **O‘rtachadan baland** | **Yuqori** |
| | | Yuqori | O‘rtacha | Past |
| | | Nazorat riski | | |

2-rasm: Tijorat banklarida auditorlik risklarining bog‘liqligi.

Boshqacha qilib aytganda, agar aniqlanmaslik riski kamaysa, u holda

- proseduralar soni ko‘payadi va ularning mohiyati o‘zgaradi;
- tekshirishga sarflangan vaqt ko‘payadi;
- auditorlik namunalarining hajmi oshmoqda.

Tekshirish metodologiyasini ishlab chiqishda auditor auditorlik risklarini baholash, u ishlaydigan axborot bazasining ahamiyati va hajmini hisobga olish kerak. Darhaqiqat, ushbu omillar asosan auditorlik xulosasi bo‘lishi kerak bo‘lgan auditorlik amallarini tanlashga ta’sir qiladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqola doirasida amalga oshirilgan tadqiqot ishini o‘tkazishda tijorat banklari umumiy risklarni boshqarish tizimida ichki auditning tutgan o‘rni, risklarga asoslangan audit tizimining rivojlangan davlatlar amaliyoti asosida afzalliklari va undan erishilishi kutilayotgan natijalar tahlili, solishtirish, taqqoslash, induksiya, deduksiya, pozitivizm, eksprimentlar va so‘rovnomalar, natijalarni tanlanmadan populyatsiyaga qarab umumlashtirish, svod tahlili va boshqa usullardan foydalanildi. Banklarda moliyaviy hisobotlarini audit qilish jarayonini shakllantirish, ayniqsa, konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotini tuzish jarayonida foydalaniladigan turli shakldagi hisobot shakllari, ularni auditida auditning xalqaro standartlaridan foydalanilgan va ularning natijasida moliyaviy hisobotlarni xalqaro talablarga moslab taqdim qilingan.

Tadqiqot davomida sifat usullaridan ham foydalanilagan. Nomiqdoriy tartib taomillar buxgalteriya hisobi sohasida, ya’ni schyotlar va o‘zaro bog‘lanishlar to‘g‘ri, qonuniy va to‘liq ekanligi to‘g‘risidagi xulosalar qilishga imkon beruvchiga umumiy bilimlarga asoslanadi.

## TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Auditorlik tashkiloti tijorat banklarida auditorlik dalillari asosida auditorlik xulosasini va hisobotini shakllantiradi. Uning natijalari asosida ijobiy yoki salbiy xulosa tuzilib, shu asosida moliyaviy hisobotni chop etish bo‘yicha tegishli qaror qabul qilinadi.

Ushbu holatda muhim masala auditorlik risklarini baholash tartibi hisoblanadi. Auditorlik risklarini baholashdan oldin uning maqbul to‘plamini belgilovchi formulaga yana bir bor murojaat qilishga to‘g‘ri keladi. Auditorlik riskini baholashda ushbu risklarni har biri bo‘yicha tegishli baholarni topishimiz lozim. Masalan: topa olmaslik riski va uni baholash bo‘yicha R.D.Do‘smuratov tomonidan quyidagicha fikr bildirilgan: “Aniqlanmaslik riskini ikki guruhga bo‘lish mumkin:

1. Tahliliy risk – bu tahlil amallari (ishlari) bajarilganda jiddiy xatolarga yo‘l qo‘yilish riskidir. Bunday xatolarni auditor ko‘rishi mumkin, ammo juda murakkabligi hamda o‘zining malakasi yetishmasligi sababli tushunmasdan o‘tkazib yuborishi mumkin.
2. Tanlashdagi risk – bu jiddiy xato-kamchiliklarning nazorat testlarini o‘tkazish (tanlab olish) chog‘ida ham, xo‘jalik muomalalarini mohiyatan tekshirish chog‘ida ham aniqlanmay qolish ehtimolidir.”

Demak, ushbu risklarni shu guruhlar asosida baholash lozim. “O‘zmilliy banki” bo‘yicha auditor tomonidan aniqlangan ichki xo‘jalik riski – 90 %, nazorat riski – 58 % va topa olmaslik riski – 8 %ni tashkil etadi. Ushbu formula bo‘yicha hisoblaganimizda quyidagicha natijaga erishildi.

**DAR=IRxCRxDR =0,90x0,58x0,08=0,04176 yoki 4,2%**

Ushbu formula asosida auditor hisoblash natijalari bo‘yicha auditning maqbul to‘plami 4,2% yuqori bo‘lmasligi, uning fikri bo‘yicha ushbu rejalashtirishda asos bo‘lib xizmat qiladi.

Shunday qilib, tijorat banklarida ushbu formula yordamida bank tizimining ichki audit tekshiruvlarini amalga oshirishda bevosita ushbu ko'rsatkichlardan foydalanishimiz mumkin.

Tashqi audit tomonidan ushbu ko'rsatkichlar 5 yil davomida "O'zmilliy banki"da quyidagicha bo'lgan.

1-jadval: "O'zmilliybanki"da tashqi audit tomonidan auditorlik riskining maqbul to'plami dinamikasi

| № | Ko'rsatkichlar | 2017 | 2018 | 2019 | 2020 | 2021 | 2022 |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1. | Ichki xo'jalik riski | 0,88 | 0,90 | 0,83 | 0,85 | 0,82 | 0,89 |
| 2. | Nazorat riski | 0,58 | 0,58 | 0,60 | 0,62 | 0,59 | 0,61 |
| 3. | Topa olmaslik riski | 0,08 | 0,08 | 0,09 | 0,08 | 0,10 | 0,09 |
| 4. | Auditorlik riskining maqbul to'plami | 0,0408 | 0,0417 | 0,0459 | 0,0412 | 0,0435 | 0,0543 |

Ushbu jadvaldan ko'rinib turibdiki, 2022-yil 5,43%, 2017-yili 4,08% bo'lib, qolgan yillarda auditorlik riskining maqbul to'plami 4,2% atrofida ko'rsatkichni tashkil etgan. Lekin ushbu usul yaxshi bo'lganligi bilan auditor ko'pchilik hollarda undan foydalanmaydi va ushbu formula samarasi kamroq. Shu sababli samarali reja tuzish maqsadida auditor tomonidan riskni hisoblashning ikkinchi usulidan foydalanadi, ya'ni topa olmaslik riskini aniqlaydi va tegishli auditorlik ma'lumotlari asosida ushbu ko'rsatkich hisoblanadi. Shu maqsadda auditorlik riski modeli quyidagicha qayta hisoblanadi:

**DR=DAR/IrxCR**

Yuqoridagi ma'lumotlar asosida auditor tomonidan o'ziga maqbul auditorlik riskini 5% deb belgiladi. U holda yuqoridagi ma'lumotlar asosida hisoblaganimizda quyidagicha ko'rsatkichlarga erishildi:

**DR= 0,05/0,8*0,5=0,125**

Demak, ushbu formulaga ko'ra, auditning mohiyatidan kelib chiqib, auditorlik tekshiruvi natijasi bo'yicha auditning ishonchlilik darajasini aniqlashimiz mumkin.

Uni hisoblashda 100%-12,5%= 87,5% ni tashkil etadi.

2-jadval: Auditorlik riski to'plamlarini auditning maqbul to'plamiga bog'liqligini tahlili

| Auditorlik riskining maqbul to'plami | Ichki nazorat riski | Nazorat riski | Topa olmaslik riski | Auditning ishonchlilik darajasi |
|---|---|---|---|---|
| 5% | 80% | 70% | 8,9% | 91,1% |
| 4,5% | 75% | 75% | 8% | 92% |
| 4% | 85% | 70% | 6% | 94% |
| 5%" | 75% | 80% | 8% | 92% |

"O'zmilliybanki" auditini amalga oshirishda audit natijasi bo'yicha kutilayotgan ishonchlilik darajasi 87,5% ni tashkil etadi va bank auditning vazifasi audit o'tkazishda audit tanlovini yanada kengaytirish va tekshiruvlar ko'lamini ko'proq qismini jalb etishga qaratishi lozim. Shunday qilib, ushbu formulaga ko'ra ichki xo'jalik riski va nazorat riski bilan topa olmaslik riski o'zaro bog'liq bo'ladi va ular turli kombinatsiyalarda turlicha ta'sir qiladi.

Ushbu jadvalda ko'rinib turibdiki, audit o'tkazish jarayonida topa olmaslik riski doimiy ravishda mavjud bo'ladi Chunki audit jarayonida tanlash jarayoni darajasi qanchalik to'liq bo'lsa, shunchalik ushbu ko'rsatkich kichik bo'ladi va ushbu ma'lumotlarda yuqoridagi model bo'yicha auditorlik riskini hisoblash tartibi keltirilgan. Auditning maqbul to'plami, odatda, xalqaro audit jarayonida 5% yaqin deb qaraladi va ushbu ko'rsatkich auditorlik firmasida ham qo'llanilganda auditning ishonchlilik darajasi 92 foizdan yuqori bo'lgan. Lekin shuni ta'kidlash kerakki, audit qilish jarayonida tanlash usullaridan foydalanilmasdan 100% audit jarayoni qamrab olinsa, u holda ishonchlilik darajasi ham 100 ga teng bo'ladi.

Tijorat banklarining faoliyatini audit qilishda risklarni to'g'ri baholash muhim ahamiyatga ega. Shu sababli ushbu sohada risklarni baholash masalasi bo'yicha iqtisodchi-olim Norqobilov S. tomonidan quyidagicha fikr bildirilgan: "Shu bilan birga, auditorlar bank tomonidan amalga oshirilgan barcha ham iqtisodiy, ham buxgalteriya operatsiyalarining to'g'riligini baholashlari lozim, diqqat-e'tiborni ko'proq bankning barqarorligiga qaratishlari kerak. Masalan, Buyuk Britaniyada audit masalasi bir oz boshqacharoq bo'lib, bankning nomoliyaviy omillariga,

o‘lchab bo‘lmaydigan tomonlariga ko‘proq urg‘u beriladi. Xususan: kadrlar siyosati (malakali kadrlarni yollash imkoniyati va yetarliligini ta’minlash, asosiy xodimlarning mehnatiga to‘lovlar samaradorligi, asosiy xodimlarni yo‘qotish oqibatlari); qarorlarni qabul qilish shartlari va majburiyatlarini taqsimlash (qarorlarni hujjatlarda aks ettirish, hisob-kitoblarni olib borish va bu jarayonlarni nazorat qiluvchi hamma darajadagi shaxslar o‘rtasidagi vazifalarning aniq taqsimlanishi); risktavakkalchiliklarni boshqarish (aniqlash protseduralari, tavakkalchiliklarni o‘lchash va kuzatish, ular bo‘yicha hisobotlar mavjudligi).”

Ushbu sharoitda risklarni boshqarish, eng avvalo, bank auditi risklarini boshqarish muhim va dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Chunki ular bevosita bank risklariga ham bog‘liq bo‘lib, ularni minimallashtirish auditorlik risklarini ham kamaytirish imkonini beradi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi holatlar tijorat banklarida moliyaviy holati tahlilidagi muammolarning mavjudligi ushbu mavzuning dolzarbligini belgilab beradi va banklarni barqaror resurslar bilan ta’minlanishini takomillashtirish yo‘llarini chuqur ilmiy tahlil qilishni taqozo etadi.

1. O‘zbekistonda auditorlik xizmatlari bozorining shakllanishi o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Shu tufayli uni takomillashtirish bo‘yicha xalqaro audit standartlari talabiga mos ravishda o‘zimizning xususiyatlarimizdan kelib chiqib tegishli tavsiyalar ishlab chiqilishi lozim.
2. Auditorlik tashkilotlarining samarali faoliyat ko‘rsatishi uchun ularning ichki standartlarini (qoidalarini) shakllantirish lozim. Ammo bunday tartib hamon ishlab chiqilmagan. Shu tufayli auditorlik tashkilotlarining ichki standartlari, tijorat banklarida auditorlik tekshiruvlarini o‘tkazishga doir tavsiyalar ishlab chiqildi va ilmiy jihatdan asoslab berildi;
3. Ichki audit uslubiyoti ma’lum bosqichlar bo‘yicha tashkil etilib, ularni, bizning fikrimizcha, quyidagi bosqichlarga bo‘lishimiz mumkin:

risk darajasi past bo‘lgan sohalar kam tekshiriladi yoki u qadar sinchiklab tekshirilmaydi. Xulosa qilib aytganda, tijorat banklari moliyaviy holatini tahlili iqtisodiy mohiyati va tushunchasi ko‘pqirrali bo‘lib, zamonaviy sharoitda uni chuqurroq va teranroq boshqarish yuzasidan qabul qilinadigan qarorlarni samaradorligini oshirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Bank faoliyatining moliyaviy natijalarini tekshirishda auditorning professional sifatida fikr yuritishidan kelib chiqqan holda nazorat vositalari riskini baholash uchun, bizning fikrimizcha, quyidagi yondashuvning bittasidan foydalanish o‘rinlidir:

1. Muvofiqlik bo‘yicha tekshiruv o‘tkazish. Bunda muvofiqlik bo‘yicha tekshiruv o‘tkazish va olingan ma’lumotlar asosida nazorat vositalari riski darajasini aniqlash zarur;
2. Daromad olish manbai yoki operatsion xarajatlar bo‘yicha majburiyat sifatida xizmat qilgan bank operatsiyalariga doir nazorat vositalarini baholash (bazaviy operatsiyalar bo‘yicha nazorat riskini baholash). Demak, kreditlar bo‘yicha foiz daromadlarini tekshirishda mijozlar auditor tomonidan mijozlar ishtirokidagi kredit operatsiyalarini tekshirish davomida bajarilgan nazorat vositalari ishonchliligini baholash natijalaridan foydalanishi lozim. Ta’kidlash kerakki, bunday yondashuvni xarajatlarning boshqa moddalariga nisbatan ham qo‘llash mumkin (mehnatga haq to‘lash, asosiy vositalarni saqlash xarajatlari, amortizatsiya ajratmalari, to‘langan soliqlar va hokazo).

**Adabiyotlar / Literatura / Reference:**


1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” qarori, PQ-4611-son, http://lex.uz/docs/3107040.
2. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati va Qonunchilik palatasiga murojaatnomasi. 2020-yil 25-yanvar. –Toshkent: “O‘zbekiston”, 2020. – 30 b.
3. Ибрагимов А.К., Марпатов М.Д., Ризаев Н.Қ. Халқаро молиявий ҳисобот стандартлари асосида банкларда бухгалтерия ҳисоби. Ўқув қўлланма. –Т.:Молия, 2010. –272б. Б.64-65.
4. Дусмуратов Р.Д., Тулаев У.И. Молиявий хисобот: назарий, услубий ва амалий жиҳатлари. –Т.:. “Extremum-Press”, 2012, 144 б.
5. Ибрагимов А.К., Умаров З.А., Ҳотамов К.Р., Ризаев Н.К. – “Тижорат банкларида молиявий хисоботнинг халқаро стандартлари” ўқув қўлланма –Т. : “IQTISOD – MOLIYA” нашри. 2019. –241 б.
6. Ибрагимов А.К, Очилов И, Ризаев Н. “Молиявий ва бошқарув ҳисоби”.Т.: “Иқтисод-молия”, 2009. –367 б.
7. А.В. Вахабов, А.К. Ибрагимов, Н.К Ризаев. Тижорат банклари ташқи аудитда халқаро молиявий хисобот стандартларини жорий этиш методологияси. –Т. Молия, 2011. –Монография. –188б.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Alfraganus universiteti dotsenti, i.f.f.d. (PhD) Fayziyev Oybek Raximovichning umumiy tahriri ostida nashrga tayyorlandi.**

**O'zbek tili muharriri: Ulug'bek Eshmuradov**
**Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov**
**Rus tili muharriri: Abdimo'min Alikulov, i.f.d., professor**
**Musahhih: Xondamir Ismoilov**
**Sahifalovchi va dizayner: Bobur Ochilov**

# 2024. Maxsus son

© Materiallar ko'chirib bosilganda ""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027
Topshirildi: 10.04.2024-yil. Nashrga ruxsat etildi: 19.04.2024-yil.

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.